



XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511

2022 - yil 20 - yanvar

VI-40-5-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

Tumandagi “Kindiktepa” mahalla fuqarolar yig'ini nomini “Hunarmandlar” nomiga o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son “Shahar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2021-yil 1-martdagi 0070-/01-33-son “Tumandagi “Kindiktepa” mahalla fuqarolar yig'ini nomini o'zgartirish to'g'risida”gi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 27-iyuldagi 17-06/477-son “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qumqo'rg'on tumanidagi ayrim geografik obyektlarni qayta nomlash bo'yicha Davlat ekspertizasi xulosasi haqida”gi yig'ilish bayonlarini ko'rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. 2021-yil 1-martdagi 0070-/01-33-son “Tumandagi “Kindiktepa” mahalla fuqarolar yig'ini nomini o'zgartirish to'g'risida”gi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 27-iyuldagi 17-06/477-son “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qumqo'rg'on tumanidagi ayrim geografik obyektlarni qayta nomlash

bo'yicha Davlat ekspertizasi xulosasi haqida"gi yig'ilish bayonlari ma'qullansin.

2. Tumandagi "Kindiktepa" mahalla fuqarolar yig'ini nomi "Hunarmandlar" deb o'zgartirilsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosari (N.Allanazarov), tuman Davlat xizmatlari markazi direktori (Sh.Bo'tayev) uch kun muddatda "Hunarmandlar" deb nomi o'zgartirilgan "Kindiktepa" mahalla fuqarolar yig'inini qayta ro'yxatdan o'tkazish hamda muhr va tamg'alarini almashtirishni;

o'n kun muddatda ushbu mahallaning nomini o'zgartirish to'g'risidagi tegishli hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligiga davlat reyestriga kiritish uchun yuborishini ta'minlasin.

4. Tuman Ichki ishlar bo'limi (N.Narzullayev) bir oy muddatda tumandagi "Kindiktepa" mahalla fuqarolar yig'ini nomi "Hunarmandlar" deb o'zgarishi munosabati bilan ushbu mahallada doimiy ro'yxatda turgan fuqarolarining fuqarolik pasportlaridagi doimiy yashash manzillariga tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror "Qumqo'rg'on sadosi" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Z.Allayarova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



Gapparov R. B.

Халқ депутатлари Қумқўрғон
туман Кенгашининг
2022 йил 20 январдаги
VI-40-5-8-114-К/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda nomi o'zgarayotgan mahalla fuqarolar yig'ini.

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
MAHALLAFUQAROLARYIG'INI					
1	Mahalla		Kindiktepa	Hunarmandlar, Yangi O'zbekiston, Barkamolavlod	Hunarmandlar